



CHIRCHIQ SHAHAR QABRISTONLAR FLORASINING GEOGRAFIK TAHLILI

Absamatov T.N.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, Chirchiq shahar

Tangriyev T.Ch.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, Chirchiq shahar

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2022-2023 yillardagi olib borilgan dala tadqiqotlarimizni natijasida 2-sonli Musulmonlar qabristoni florasining taksonomik tarkibi aniqlandi va mazkur hudud florasida 33 oila, 96 turkumga mansub, 149 turdan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi. Qabriston florasidagi aniqlangan turlarning tabiiy tarqalish chegarasini o'rganish asosida 41 areal tiplariga ajratildi. Bu areal tiplari 7 areal sinflari tarkibiga kiradi. Chirchiq shahri qabristonlarining tabiiy florasini va ularning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Flora, areal, plyuregional, golarktika, 2-sonli Musulmonlar qabristoni.

Аннотация. В данной статье в результате наших полевых исследований, проведенных в 2022-2023 гг., был определен таксономический состав флоры Мусульманского кладбища № 2, и установлено, что флора данного района состоит из 33 семейств, 96 родов и 149 видов. На основании изучения естественных пределов распространения выявленных видов во флоре могильника они были разделены на 41 ареальный тип. Эти ареальные типы являются частью 7 ареальных классов. Приведены сведения о природной флоре городских кладбищ Чирчика и их значении.

Ключевые слова: Флора, ареальная, межрегиональная, голарктическая, мусульманский могильник № 2.

Abstract. In this article, as a result of our field research conducted in 2022-2023, the taxonomic composition of the flora of the Muslim cemetery No. 2 was determined, and it was found that the flora of this area consists of 33 families, 96 genera and 149 species. Based on the study of the natural limits of distribution of the identified species in the flora of the burial ground, they were divided into 41 areal types. These areal types are part of the 7 areal classes. Information about the natural flora of the city cemeteries of Chirchik and their significance is given..m

Key words: Flora, areal, interregional, Holarctic, Muslim burial ground No. 2.

Jahonda, mahalliy va milliy floralar xilma-xilligini aniqlash, himoyaga muhtoj turlarini saqlab qolish va muhofazalashga qaratilgan halqaro dasturlarni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, lokal va global floralarning tarkibi va kelib chiqishi aniqlandi, ularning xalqaro ma'lumotlar bazasi yaratildi, yo'qolib ketish xavfi ostidagi tur populyatsiyalarini saqlab qolishning samarali usullari ishlab chiqildi. Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda o'simlik turlari



tarkibini o'zgarishi tufayli flora to'g'risidagi klassik va zamonaviy ma'lumotlarni o'zaro mos kelmasligi, lokal floralarning "qaynoq nuqtalari" yoki "kamchilik xududlari" to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni yetishmasligi turlarning hududiy taqsimlanishini baholash va ularni muhofaza qilishda ahamiyatli hisoblangan floralarning raqamli tizimni samarali yo'lga qo'yishni talab etmoqda. Bu o'rinda, o'ziga xos floristik hududlardagi turlarning tarqalishi va zamonaviy lokalizatsiyasini geoaxborot usullar orqali dasturlash va shu asosda himoyaga muhtoj obyektlarni muhofazalash choralarini takomillashtirish muhim sanaladi.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan flora ro'yxati bo'yicha turlarning areal tiplari aniqlandi va floraning geografik tahlili amalga oshirildi. Areal tiplarini belgilashda hozirga qadar O'rta Osiyoning tog'li qismidagi olib borilgan floristik tadqiqotlardan foydalanilgan va eng asosiy manba sifatida R.V. Kamelin (1973) [9; 313-b.] tomonidan taklif etilgan tasnif asosida amalga oshirildi. Areal tipi turning tabiiy tarqalish chegarasi hisoblanib, tabiatda bir tur ikki xil areal tipiga mansub bo'lmaydi [2].

Floradagi turlarning areal tiplarini aniqlashda floralar bo'yicha chop etilgan nashrlardan SSSR florasini (1934–1960) [3], foydalanilgan holda amalga oshirildi va shuningdek bir qator ilmiy manbalardan ham foydalanildi [7, 8, 9, 1 va boshq.].

Qabriston florasidagi aniqlangan turlarning tabiiy tarqalish chegarasini o'rganish asosida 41 areal tiplariga ajratildi. Bu areal tiplari 7 areal sinflari tarkibiga kiradi (1-jadval).

2-sonli Musulmonlar Qabristoni florasining geografik tarkibi

N ^o	Areal sinflari va areal tiplari	Turlar soni	% hisobida
I	Plyuriregional areal sinfi	11	7.38
1	Plyuriregional	11	7.38
II	Golarktik areal sinfi	14	9.38
2	Golarktik	14	9.38
III	Palearktik areal sinfi	30	20.13
3	Palearktika	7	4.69
4	O'rta Palarktika	1	0,67
5	Yevro-Qadimiyo'rtayerdengizi	6	4
6	Yevro-Sharqiyqadimiyo'rtayerdengizi	6	4
7	Yevro-Sibir-O'rtaosiyo	6	4
8	Sibir-O'rtaosiyo	3	20.13
9	Sibir-Himoloyoldi	1	0,67
IV	Qadimiyo'rtayerdengizi areal sinfi	54	36.24
10	Qadimiyo'rtayerdengizi	18	12
11	Sharqiyqadimiyo'rtayerdengizi	7	4.69
12	Himolayoldi	3	20.13
13	Eron-Himolayoldi	1	0,67
14	Eron-O'rtaosiyo	11	7.38
15	Oltoy-O'rtaosiyo	2	1.34
16	Pontik-janubiyqadimiyo'rtayerdengizi	1	0,67



17	Pontik-janubiysibir-qadimiyo'rtayerdengizi	6	4
18	Pontik-janubiysibir-Sharqiyqadimiyo'rtayerdengizi	1	0,67
19	Pontik-Qadimiyo'rtayerdengizi	1	0,67
20	Pontik-sharqiyqadimiyo'rtayer	1	0,67
21	Pontik-Sharqiyqadimiyo'rtayerdengizi	2	1.34
V	O'rtaosiyo areal sinfi	23	15.54
22	O'rtaosiyo	6	4
23	Turon	5	3.35
24	SharqiyTuron	3	20.13
25	Kopetdog'-Tog'li O'rtaosiyo	5	3.35
26	Tarbag'atoy-Tog'li O'rtaosiyo	3	20.13
27	Tiyonshon -Pomiroloy	1	0,67
VI	Tog'lio'rtaosiyo areal sinfi	18	12
28	Tog'li O'rtaosiyo	3	20.13
29	G'arbiy-Tiyonshon	4	2.68
30	G'arbiy-Chotqol	2	1.34
31	G'arbiy-Tiyonshon-G'arbiy Pomiroloy	9	6
VII	Pomiroloy areal sinfi	1	0,67
32	Janubiy-G'arbiy Pomiroloy	1	0,67
	Jami:	149	100

Plyuregional areal sinfi. Bu sinf o'z ichiga kamida ikkitadan kam bo'lmagan floristik olamda tarqalgan turlarni qamrab oladi. Bu areal sinfiga hudud florasida 11 (7.38%) tur mansub.

Golarktika areal sinfi. Butun Shimoliy yarim sharning quruqlik qismini qamrab oladi. Flora tarkibidagi 14 (7.38 %) tur mazkur areal tipiga mansub.

Palearktik areal sinfi. Golarktika floristik olamining mo'tadil va subtropik mintaqalarini egallaydi. Bu sinf Palearktika 7 (4.69%), O'rta-Palarktika 1 (0,67%), Yevro-Qadimiyo'rtayerdengizi 6 (54%), Yevro-Sharqiy qadimiyo'rtayerdengizi 6 (4%), Yevro-Sibir-O'rtaosiyo 6 (4%), Sibir-O'rtaosiyo 3 (20.13%), Sibir-Himoloyoldi 1 (0,67%), areal tiplarini o'zida birlashtiradi va uning hissasiga floradagi 30 tur (20.13%) to'g'ri keladi.

Qadimiyo'rtayerdengizi areal sinfi. Janubiy Yevropa, Shimoliy va Shimoliy-sharqiy Afrika, Kichik va Old Osiyo, Janubiy-G'arbiy Osiyo, G'arbiy Himoloy, O'rta Osiyo, G'arbiy Mo'g'iliston va G'arbiy Hitoyini qamrab oladi. Bu areal sinfiga 54 tur (36.24%) mansub. Qadimiyo'rtayerdengizi 18 tur (12%), Sharqiy qadimiyo'rtayerdengizi 7 tur (4.69), Himoloyoldi 3 tur (20.13), Oltoy-Himoloyoldi 6 tur (0,47), Eron-Himoloyoldi 1 tur (0,67), Eron-O'rtaosiyo 11 tur (7.38) kabi areal tiplarini o'z ichiga oladi.

O'rtaosiyo areal sinfi. O'rta Osiyodagi tog' tizmalarining Tarbag'otoydan Kopetdog'gacha bo'lgan qismini, qisman G'arbiy Mo'g'iliston, Xitoy, Afg'oniston va Shimoliy Erongacha bo'lgan mintaqalarni o'z ichiga oladi. O'rtaosiyo areal sinfi 6 ta areal tipidan tashkil topgan bo'lib, 23 turdan (15.54%) iborat. O'rtaosiyo areal tipiga 6 tur (4%), Turon 5 tur (3.35%), Sharqiy-Turon 3 tur (20.13), Kopetdog'-Tog'li-




O'rtaosiyo 5 tur (3.35), Tarbag'atoy-Tog'li O'rtaosiyo 3 tur (20.13), Tiyonshon - Pomiroloy 1 tur (0.67) petdog'- Kopetdog'-Tog'li O'rtaosiyo 14 tur (1,09%), Jung'oriya-Tog'li O'rtaosiyo 26 tur (2,04%), Tarbag'atoy-Tog'li O'rtaosiyo 20 tur (1,56%), Kopetdog'-Pomiroloy 3 tur (0,23), Tyonshon-Pomiroloy 27 tur (2,1%), Tyonshon-G'arbiy Pomiroloy 2 tur (0,15) areal tiplarini 146 tur (11,39%) qamrab olgan.

Tog'lio'rtaosiyo areal sinfi. Tog'li O'rtaosiyo provinsiyasi bilan chegaralangan bo'lib, Tiyonshonning g'arbiy qismi hamda Pomiroloydan (Sharqiy Pomirdan tashqari) tashkil topgan. Hudud florasida bu areal sinfiga mansub 18 (12%%) tur uchraydi. Bu sinf Tog'li-O'rtaosiyo arel tipiga 3 tur (20.13%), G'arbiy-Tiyonshon 4 tur (2.68), G'arbiy-Chotqol 2 tur (1.34), G'arbiy Tiyonshon-G'arbiy Pomiroloy 9 tur (6%) tiplarini o'z ichiga oladi.

Pomiroloy areal sinfi. Pomir-Oloyning Zarafshon, Hisor, Qorategin, Petr I, Darvoz, Fanlar Akademiyasi tizmalari va G'arbiy Pomirning Badaxshon qismini qamrab oladi. Florada tarqalgan 1 (0.67%) tur ushbu areal sinfiga mansub bo'lib, Janubiy-g'arbiy Pomiroloy areal tipida uchraydi.

Tadqiqot hududi florasining geografik tahliliga ko'ra Palearktik (20.13%) va Qadimiyo'rtayerdengizi (36.24%) areal sinflariga mansub turlar floraning 1/2 qismini tashkil etishi aniqlandi.



1-rasm. Qadimiyo'rtayerdengizi areal sinfi elementlari ustunlik qiluvchi yetakchi oilalar (ko'rsatkichlar foizda)

Qabrison florasida Qadimiyo'rtayerdengizi areal sinfi elementlari ichida Asteraceae oilasida 14.81% eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa, eng past natija Cyperaceae (1.85%), Amaryllidaceae, Boraginaceae, Rosaceae, Moraceae, Papaveraceae xamda Podophyllaceae oilalariga tegishlidir (1-rasm).

Turlarning xilma-xilligiga ko'ra, Qadimiyo'rtayerdengizi areal sinfi 52 tur (36.24%) bilan yetakchilik qiladi. Areal tiplari orasida turlar soniga ko'ra, Qadimiyo'rtayerdengizi (18 tur) areal tiplari peshqadamlik qiladi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, Nafaqat tadqiqot hududi balki Chirchiq shahar florasida Shimoliy yarim



sharning subtropik va mo'tadil mintaqalariga xos bo'lgan o'simlik vakillari asosiy o'rin tutadi. Hudud florasining shakllanishida Qadimiyo'rtayerdengizi geografik elementlarining ta'siri katta bo'lib, buni Toshkent viloyatining Chirchiq shahar va Bo'stonliq tumanining uzoq geologik tarixi, o'ziga xos geografik o'rni, iqlim hosil qiluvchi omillari yig'indisi va boshqa jarayonlarning ta'siri bilan izohlash mumkin. Geografik elementlarning tahlil natijalari ko'ra, tadqiqot hududi Qadimiyo'rtayerdengizi floristik viloyatining O'rta Osiyo tog'lari florasiga xos ususiyatlarga ega tipik maydonlaridan biri ekanligini namayon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хасанов Ф. О. Ксерофильная древесно-кустарниковая растительность Кугитанг-тау: Автореф. дис... канд. биол. наук. – Ташкент, 1987. – 20 с.
2. Толмачев А.И. Введение в географию растений. – Л.: ЛГУ, 1974. – 244 с.
3. Флора СССР. В 30 т. М., Л.: изд. АН СССР, 1934-1964.
4. Сенников А.Н. Amaryllidaceae – Амариллисовые. Флора Узбекистана. – Ташкент: – Навруз, 2016. Т. 1. – xxviii + С. 1-173.
5. Определитель растений Средней Азии. В 11 т. Ташкент: Фан, 1963-2015.
6. Левичев И.Г. Новые виды рода *Gagea* Salisb. (Liliaceae) из Западных районов Азии // *Turczaninowia*. –Барнаул: Алт. гос. ун-та, 2001. Т. 4. Вып. 1-2. – С. 5-35.
7. Ахмедов, Б. (2018). Oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'rganish jarayonida elektron ta'lim kurslarini qo'llash tamoyillari. *Toshkent davlat pedagogika universiteti*, 1(1), 51-56
8. Камелин Р.В. Кухиستانский округ горной Средней Азии. Ботанико-географический анализ. – Л.: Наука, 1979. – 166 с.
9. Камелин Р.В. Флора Сырдарьинского Каратау. – Л.: Наука, 1990. – 146 с. биол наук. ☐ Ташкент, 2016. ☐ 130 с.
10. Камелин Р.В. Флорогенетический анализ естественной флоры горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. – 313 с.
11. T.N. Absamatov, U.H. Development, & T.CH. Tangriyev. (2023). Comprehensive Analysis Of The Flora Of Cemeteries Common In The City Of Chirchik. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 20, 29–33. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/3937>